

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD. 03/28.08.2020.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI**

**JURAEV XUSAN ATAMURATOVICH**

**MAHALLIY ISHBILARMONLIK SALOHIYATIDAN SAMARALI  
FOYDALANISH ASOSIDA MINTAQANI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH  
(SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).**

**08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (RhD) dissertasiyasi  
AVTOREFERATI**

**Urganch - 2023**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Juraev Xusan Atamuratovich**

Mahalliy ishbilarmonlik salohiyatidan samarali foydalanish asosida mintaqani kompleks rivojlantirish (Surxondaryo viloyati misolida).....3

**Жураев Хусан Атамуратович**

Комплексное развитие региона на основе эффективного использования местных бизнес-компетенсий (На примере Сурхандарьинской области).....25

**Juraev Husan Atamuratovich**

Complex development of the region based on the efficient use of local business competences ( In the case of Surkhandaryo region)..... 49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....53

**URGANCh DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD. 03/28.08.2020.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI**

**JURAEV XUSAN ATAMURATOVICH**

**MAHALLIY ISHBILARMONLIK SALOHIYATIDAN SAMARALI**  
**FOYDALANISH ASOSIDA MINTAQANI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH**  
**(SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).**

**08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (RhD) dissertasiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Urganch – 2023**

**Iqtisodiyot fanlari boyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Iqt1337 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Termiz iqtisodiyot va servis universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi ([www.urdu.uz](http://www.urdu.uz)) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ruzmetov Baxtiyar.**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Kadirov Abdurashid Majidovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ibodullayev Dilshod Ibragimovich**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

**Yetakchi tashkilot:**

**Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/28.08.2020.I.55.03 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_:\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi 14 uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, e-mail: [info@urdu.uz](mailto:info@urdu.uz).

Dissertatsiya bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi 14 uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, e-mail: [arm@urdu.uz](mailto:arm@urdu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2023 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**I.S. Abdullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d, professor

**T.J. Raximov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD

**U.R. Matyaqubov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida ilmiy seminar raisi, DSc., dotsent

## **Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga nazar tashlasak, ularda kichik va oʻrta biznesni rivojlantirish mamlakatda iqtisodiy oʻsishning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Bunda har bir mintaqani raqobatbardoshlik afzaliklaridan, ishbilarmonlik muhitini faollashtirishdan mavjud tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xoʻjaligi, xizmatlar va mehnat salohiyatidan unumli foydalanishni taʼminlash orqali kompleks rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratiladi.

Jahon iqtisodiyotida “hozirgi vaqtda dunyodagi 90,0 foiz korxonalar kichik va oʻrta biznesga tegishli boʻlib, ular jahon aholisining 63,0 foizini ish bilan taʼminlamoqda. Yevropa Ittifoqida kichik va oʻrta biznesning nomoliyaviy korxonalaridagi umumiy salmogʻi 99,8 foizni tashkil etgani holda aholining uchdan ikki qismini ish bilan taʼminlamoqda”<sup>1</sup>. Bu yoʻnalishdagi ilmiy muammolarni yechishga qaratilgan keng koʻlamli tadqiqotlar olib borilmoqda.

Yangi Oʻzbekistonni taraqqiyot strategiyasida mamlakatni jahonda rivojlangan davlatlardan biriga aylantirish koʻzda tutilgan. Bu esa samarali mintaqaviy siyosatni olib borishni taqozo etmoqda. Strategiyaning 21-maqsadida “Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori oʻsish surʼatlarini taʼminlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda “daromadi oʻrtachadan yuqori boʻlgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish deb taʼkidlangan<sup>2</sup>. Mazkur vazifalarni hal etishda investitsion faollikni jadallashtirish asosida mintaqani kompleks rivojlantirishga yangicha uslub va vositalarni qoʻllash yoʻnalishida ilmiy tadqiqot ishlari olib borish dolzarb hisoblanadi.

Shu sababli, mintaqadagi mavjud salohiyatdan unumli foydalanishga qaratilgan rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, samarali ishbilarmonlik muhitini shakllantirishni taʼminlovchi yangi omillarni izlab topish eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Ayniqsa, ishbilarmonlik muhitida faollikni talab etuvchi yetakchi tarmoqlarni aniqlash, ularning mintaqadagi boshqa sohalarni rivojlanishiga asos boʻlishini ilmiy-uslubiy asoslash, bu borada jahon amaliyotidagi ilgʻor tajribalarni, innovatsion usul va modellarni qoʻllash muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentyabrdagi PF-5185-sonli “Oʻzbekiston Respublikasida Maʼmuriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi, 2019 yil 8 yanvardagi PF-5614-sonli “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmonlarida, 2017 yil 8 avgustdagi PQ-3182-sonli “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini taʼminlashga doir ustuvor chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Qarorida, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan

<sup>1</sup> <http://www.imf.org/external/pubs/ft/sdn/2015/sdn1504.pdf>

<sup>2</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022 — 2026 yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/5841063>

darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajariladi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Xorijiy mamlakatlar mintaqashunos olimlari M.Porter, R.S.Kaplan, D.Norton, A.Tompson, X.R.Fridag, R.Xarris, V.Kokren, J.Put, R.Kapell, U.Fretesi tomonidan hududlarni kompleks va mutanosib rivojlantirish va uni tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan<sup>3</sup>.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va uni davlat tomonidan tartibga solish masalalari MDH davlatlari olimlari В.И.Видяпин, А.Г.Гранберг, Г.В.Гутман, Р.Н.Евстигнеев, Л.П.Евстигнеева, Н.В.Зубаревич, Е.Г.Коваленко, О.В.Кузнецова, В.Н.Лексин, Н.А.Михальченко, Т.Г.Морозова, М.В.Степанов va А.Н.Швецовlar tomonidan keng o‘rganilgan<sup>4</sup>. Ularning ilmiy tadqiqot natijalari mintaqaviy iqtisodiyot fanining metodologik asoslarini boyitishga, hududiy siyosat tamoyillarini asoslab berishga, hududlar rivojlanishini tartibga solishning nazariy-amaliy asoslarini ishlab chiqishni takomillashtirishga katta hissa qo‘shdi.

Hududiy iqtisodiyotning nazariy-metodologik jihatlari, O‘zbekistonda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish masalalari mamlakatimiz iqtisodchi olimlardan M.A.Abdusalyamov, T.M.Axmedov, A.V.Mamatkulov, Sh.X.Nazarov, A.B.Nizamov, O.O.Olimjonov, D.A.Ortikova, B.Ruzmetov, A.M.Sodikov, A.T.Yusupov, F.T.Egamberdiyev, A.M.Qodirov, S.S.Zokirov, X.M.Saydaxmedov, Sh.J.Ermamatov, B.D.Ollonazarov va boshqalarning asarlari va ilmiy ishlanmalarida keng yoritilgan<sup>5</sup>.

---

<sup>3</sup> Портер М. Конкуренция. : Пер. с англ. - М.: Издательский дом “Вильямс”, 2003. - 608 с. : ил. - Парал. тит англ. Kaplan R.S., Norton D. P. The strategy-focused organization: How balanced scorecard companies thrive in the new business environment[Text] / R. S. Kaplan,. - Harvard Business School Press, 2001; Томпсон А. А. Стратегический менеджмент [Текст] / Пер. с англ.- М.: Банки и биржи, ЮНИТИ, 1998.- 576 с.; Фридаг Х. Р. Сбалансированная система показателей. [Текст] / Пер. с нем. - М.: Финансы и статистика, 2007; Harris R. Models of Regional Growth: Past, Present and Future // Urban and Regional Economics Seminar Group Seminar Meeting: University of Glasgow, 10-11 January 2008; Cochrane W., Poot J. Demand-Driven Theories and Models of Regional Growth // Handbook of Regional Science. July 2013. P. 259-276; Capello R., Fratesi U. Modelling Regional Growth: An Advanced MASST Model // Spatial Economic Analysis, Vol. 7, No. 3, September 2012. P. 293-318.

<sup>4</sup> Видяпин В.И., Степанов М.В. Региональная экономика: Учебник / Под ред. В.И. Видяпина и М.В. Степанова. М.: ИНФРА-М, 2009. - 666 с.; Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. Учебник для вузов - 4-е изд. М.: Изд. дом ГУ ВШЭ, 2004. - 495 с. Гутман Г.В. и др. Управление региональной экономикой. М.: Финансы и статистика. 2002. - 175 с.; Евстигнеев Р.Н., Евстигнеева Л.П. Глобализация и российские регионы // Проблемы теории и практики управления, 2003. - №1. - С. 33. Зубаревич Н.В. Стратегия пространственного развития: приоритеты и инструменты. Вопросы экономики, №1, 2019 г. - С. 135-145; Коваленко Е. и др. Региональная экономика и управление: Учебное пособие, 2-е изд., перераб. и доп. - СПб.: Питер, 2008. -151 с.; Кузнецова О.В. Экономическое развитие регионов: Теоретические и практические аспекты государственного регулирования. Изд. 6-е. - М.:ЛЕНАНД, 2015. - 304 с.; Лексин В.Н., Швецов А.Н. Государство и регионы. М.: УРСС. 2002; Лексин В.Н. Методы и практика системного регулирования регионального и хозяйственного развития. М.: УРСС. 2002; Михалченко Н.А., Сметанина Т.М. Государственное регулирование экономики: учебное пособие / КРАГСИУ, 2004. - 154 с.; Морозова Т.Г. Государственное регулирование экономики. Под ред. Т.Г. Морозовой. М.: ЮНИТИ. 2001 - 255 с.; Региональная экономика. 4-е изд., перераб. и доп. - М.: Юнити-Дана, 2012. - 641 с.

<sup>5</sup> Абдусаломов М. О целях и методологических основах региональной политики. Научно-исследовательский центр “Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана” при ТГЭУ. - Ташкент, 2015 г.; Ахмедов

**Tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertasiya tadqiqoti Termiz iqtisodiyot va servis universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajariladi.

**Tadqiqotning maqsadi** Surxondaryo viloyatini ishbilarmonlik muhitini faollashtirish asosida kompleks rivojlantirishga qaratilgan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

mintaqada ishbilarmonlik muhitini faollashtirish zarurati va ahamiyatini asoslab berish;

mintaqani kompleks rivojlantirish tendensiyalari, tizimli muammolari va omillarini aniqlash;

mintaqada ishbilarmonlik muhiti faollashgan xolda kompleks rivojlantirish konsepsiyasining asosiy yo'nalishlarini ilmiy asoslash;

tarmoqlararo klasterlar tashkil qilish asosida mintaqani kompleks rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish;

o'rta va uzoq muddatli, istiqbolda viloyatni ishbilarmonlik muhitini faollashtirgan holda kompleks rivojlantirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida Surxondaryo viloyati iqtisodiyoti tarmoqlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** Surxondaryo viloyatida investision faollikni jadallashtirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertasiyada maqsadli rejalashtirish, monografik kuzatuv, statistik guruhlash, tizimli va qiyosiy tahlil, ekonometrik modellashtirish, ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

mahalliy ishbilarmonlik salohiyatini yuksaltirish manbalarini aniqlash (mahoratli tadbirkor - 68 foiz, salohiyatli tadbirkor -20 foiz) asosida mintaqani kompleks rivojlantirishni tashkiliy-iqtisodiy modeli taklif etilgan;

---

T.M., Хасанджанов К.А., Хакимов Н.Х.. Региональная экономика: Учебное пособие. - М.: изд. РЭА им. Г.В.Плеханова. 2006. - 231 с.; Mamatkulov A.V. The role of free economic zones in attracting foreign direct investment through small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. "Economic development and liberalization issues of implementation the five priority areas of Uzbekistan's development strategy". -Tashkent, 2018.; Назаров Ш.Х. Методологические аспекты повышения конкурентоспособности регионов. -Ташкент: IFMR, 2014. - 212 с.; Низамов А.Б. Совершенствование системы управления региональной экономикой в условиях устойчивого экономического роста. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Ташкент, 2018 г. - 45 с.; Олимжонов О.О. Вопросы повышения конкурентоспособности сельских районов. Агрэкономика, 2017, №1. -С. 7-12; Ортикова Д.А. Иктисодиёт ракобатбардошлигини оширишнинг асосий йуналишлари. "Минтака иктисодиёти ракобатбардошлигини ошириш муаммолари ва ечимлари" мавзусидаги республика илмий -амалий конференция материаллари. - Сурхондарё, 2015.; Рузметов Б. Региональная экономика: опыт, проблемы, эффективность комплексного развития. - Ташкент: Фан, 2002. - 220 с.; Садыков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика. -Ташкент: Iqtisod- moliya, 2005. - 280 с.; Садыков А.М. Новая стратегия развития Узбекистана: формирование, приоритеты, реализация. Монография. - Ташкент, 2019. - 536 с.; Эгамбердиев Ф.Т. Иктисодиёт назарияси, укув кулланма. - Т.: Иктисод- молия нашриёти, 2014й.; Кадыров А. М. и др. Региональная экономика. - Т.: LESSON PRESS, 2018. - 239 с.; Зокиров С.С. Инструменты государственного регулирования комплексного развития регионов Узбекистана. Материалы VI Форума экономистов. Т. II. Ташкент: IFMR, 2015. -С. 94-101; Сайдахмедов Х.М. Развитие регионов Узбекистана. Информационно-аналитический бюллетен «Экономика Узбекистана» за 2017 год. ЦЭИ, 2018г.

mintaqada hukumat qarori bilan beshinchi toifaga kiritilgan (Qiziriq, Bandihon, Muzrabod) tumanlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, tadbirkorlikka qulay shart-sharoitlar yaratish klaster tizimi ishlab chiqilgan;

mintaqada ishbilarmonlik muhitini faollashtirishda kichik biznesni strategik rivojlantirish hududlari (Oltinsoy, Boysun, Denov, Uzun tumanlari), kovorking markazlari (Termiz va Boysun shaharlari, Sherobod, Boysun tumanlarida), mahallalarni ixtisoslashuvi negizida mikromarkazlar (Angor, Bandihon, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Sariosiyo, Sho'rchi tumanlarida) tashkil qilish asoslangan; mintaqani yalpi hududiy mahsulotini o'sish darajasi ko'rsatkichlarini 2023-2027-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:**

Surxondaryo viloyatini kompleks rivojlantirish darajasi ishbilarmonlik salohiyatidan foydalanish asosida baholanib viloyatining shahar va tumanlarini rivojlantirish darajasidagi hududlararo tabaqalashuvni qisqartirish, kichik va o'rta biznesni ustuvor yo'nalishlari aniqlangan;

mintaqani kompleks rivojlantirishda kichik biznes strategik zonalari, kavorking markazlari, monomarkazlarni tashkil qilish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan;

mahalliy ishbilarmonlikni jadallashtirish orqali mintaqani kompleks rivojlantirish tashkiliy-iqtisodiy modeli ishlab chiqilgan;

Surxondaryo viloyatida kompleks rivojlanish darajasini o'rganish smart markazini yaratish taklifi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan yondashuv va usullarni maqsadga muvofiqligi, rasmiy statistik manbalar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Surxondaryo viloyat hokimligining statistik ma'lumotlaridan olinganligi, keltirilgan tahlillar matematik va ekonometrik usullar orqali asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining mas'ul tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan mintaqada ishbilarmonlik salohiyatidan samarali foydalanish asosida mintaqani kompleks rivojlantirish yo'nalishlarini asoslash, shu asosda rivojlanish davlat, tarmoq va mahalliy rivojlanish dasturlari, strategiya va konsepsiyalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati** O'zbekiston Respublikasi mintaqalari, hokimliklar, hududlardagi kichik va o'rta biznes korxonalari va tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish, mintaqani kompleks rivojlantirish maqsadli dasturlarini shakllantirish, oliy o'quv yurtlari o'quv jarayonida keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mahalliy ishbilarmonlik salohiyatidan samarali foydalanish asosida mintaqani kompleks rivojlantirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mahalliy ishbilarmonlik salohiyatini yuksaltirish manbalarini aniqlash (mahoratli tadbirkor - 68 foiz, salohiyatli tadbirkor -20 foiz) asosida mintaqani kompleks rivojlantirishni tashkiliy-iqtisodiy modeli bo'yicha taklif xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2021-yil 15- iyundagi "Viloyatda investisiyalarni jalb qilish va investisiya loyihalari yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida"gi VI-29-7-8-0-K/21-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi

Surxondaryo viloyati hokimligining 2023-yil 26-apreldagi 07-07/142-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amalga oshishi Surxondaryo viloyatining 2023-yilgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi doirasida 7,8 trln, so'mlik 512 ta investision loyihalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish imkonini bergan; mintaqada hukumat qarori bilan beshinchi toifaga kiritilgan (Qiziriq, Bandihon, Muzrabod) tumanlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, tadbirkorlikka qulay shart-sharoitlar yaratish klaster tizimi bo'yicha taklif Surxondaryo viloyati hokimining 2022-yil 31-maydagi "2022-2026-yillarda Surxondaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 341-8-0-Q/22-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati hokimligining 2023-yil 26-apreldagi 07-07/142-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu tumanlarni yuqori toifaga o'tkazish imkoniyatlari asoslangan va klaster tizimini takomillashtirish imkoniyatini bergan;

mintaqada ishbilarmonlik muhitini faollashtirishda kichik biznesni strategik rivojlantirish hududlari (Oltinsoy, Boysun, Denov, Uzun tumanlari), kovorking markazlari (Termiz va Boysun shaharlari, Sherobod, Boysun tumanlarida), mahallalarni ixtisoslashuvi negizida mikromarkazlar (Angor, Bandihon, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Sariosiyo, Sho'rchi tumanlarida) tashkil qilish bo'yicha taklif Surxondaryo viloyati hokimining 2021-yil 27-avgustdagi "Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda iqtisodiy tadqiqotlar sifati va rolini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 119-8-0-Q/21-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati hokimligining 2023-yil 26-apreldagi 07-07/142-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklif orqali kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bo'yicha jami 5,2 mlrd. so'mlik loyihalarni amalga oshirish imkoni yaratilgan; mintaqani yalpi hududiy mahsulotini o'sish darajasi ko'rsatkichlarini 2023-2027-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlari Surxondaryo viloyati hokimining 2022-yil 31-maydagi "2022-2026-yillarda Surxondaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 341-8-0-Q/22-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati hokimligining 2023-yil 26-apreldagi 07-07/142-son ma'lumotnomasi). Natijada, 2026-yilga kelib YaHM hajmi 1,4 barobarga va kichik va o'rta biznes sub'ektlari soni 2 barobarga oshishi prognoz qilinib, Surxondaryo viloyatini kompleks rivojlantirish darajasini oldindan aniqlash va samarali rejalashtirish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Tadqiqot natijalari jami 18 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 7 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqot bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertasiyalarga asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta mahalliy va 2 ta xalqaro jurnalda maqolalar chop etilgan.

**Dissertasiyaning xajmi va tuzilishi.** Dissertasiya kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertasiya xajmi 148 betdan iborat.


## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti hamda predmeti shakllantirilgan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi hamda nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning **“Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mintaqani kompleks rivojlantirishning metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ishbilarmonlik muhitini faollashtirish asosida mintakani kompleks rivojlantirish ob'ektiv zarurati, mintaqani kompleks rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari va mintakani kompleks rivojlantirishning xorij tajribasi tahlil qilingan .

Bugungi kunda iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim yo'nalishi sifatida *ishbilarmonlik muhitini faollashtirish bo'lib, uni asosida ishbilarmonlik yoki biznes muhitini rivojlantirish yotadi. Aslida, iqtisodiy tarmoqlarga tegishli biznes tizimi tushunchasi “biznes muhiti” tushunchasining umumiy jihatlarini aks ettiradi. Ushbu muhit har bir hudud yoki mintaqa sharoitida rivojlantirilishi mumkin. Biznes muhitining asosiy maqsadi ishbilarmonlik faoliyatini amalga oshirish va uni samarali rivojlantirishni taqozo qiladi. Biznes muhiti tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida biznes faoliyatini amalga oshirishning o'zgarib turadigan, xilma-xil va ko'p qismli maydoni, shakli va ko'rinishi sifatida mustaqil ravishda ajralib chiqdi. Biznes muhiti - tashkilotning ichki va tashqi muhiti, biznes tizimi birlashtirilgan va tashkiliy xatti-harakatlarini belgilaydigan tizim turlari to'plamidir<sup>6</sup>.*

Biznes muhiti biznes tizimi tarkibiga kirib, tashqariga chiqadi. Biznes maydonining ichki qismi tashkilotning ichki muhitiga o'xshaydi. U funksional quyi tizimlarning quyidagi to'plamini ifodalaydi (1-rasm):



### 1-rasm. Biznes muhitidagi mavjud tizimlar to'plami<sup>7</sup>

Biznes maydonining tashqi qismi ko'p o'lchovli tizim bo'lib, quyidagi bir nechta darajalarni o'z ichiga oladi:

- kontragent sub'yektlar (iste'molchilar, yetkazib beruvchilar, mijozlar, pudratchilar, raqobatchilar, autsorserlar) ya'ni, biznes tizimida turli xil shartnomaviy

<sup>6</sup> Manba: [https://studme.org/359074/ekonomika/biznes\\_sreda\\_biznes\\_prostranstvo](https://studme.org/359074/ekonomika/biznes_sreda_biznes_prostranstvo)

<sup>7</sup> Muallif ishlanmasi

munosabatlarga ega bo'lganlar;

- biznes tizimini resurslar bilan ta'minlaydigan kapital, mehnat, xizmatlar, axborot va boshqalar bozorlari;

- ushbu biznes tizimi boshqaruv ob'yekti bo'lgan nazorat organlari;


- biznes tizimi faoliyatida ishtirok etadigan infratuzilma ob'yektlari;

- boshqaruvning ushbu segmentida mavjud bo'lgan shartlar va o'yin qoidalari;

- biznes tizimining imidj salohiyati.

Shuningdek, *mintaqani kompleks rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari qatoriga* mintaqalararo ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni amalga oshirish kiradi. Mintaqalararo ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish zaruriyati deyarli barcha xorijiy va mamlakatimiz olimlari tomonidan qayd etilgan bo'lib, uning asoslarini ishlab chiqish O'zbekiston sharoitida juda dolzarb bo'lib qolmoqda.

*Mahalliy ishbilarmonlik salohiyatidan samarali foydalangan holda mintaqani kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish* jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi(1-rasm):



## 2-rasm. Mahalliy ishbilarmonlik salohiyatidan samarali foydalangan holda mintaqani kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish bosqichlari<sup>8</sup>

Shundan kelib chiqib, kichik biznes rivojlanishining strategik vazifalari sifatida:

- eng muhim ustuvor yo'nalishlar rivojini rag'batlantirish;

- ishbilarmonlik salohiyatiga qulayliklar yaratish;

- tarmoq va hudud rivoji uchun zarur, ammo rentabelligi past bo'lgan subektlarni qo'llab - quvvatlash;

- yuqori foyda keltiradigan bo'shliqni egallashga ixtisoslashuv; yirik korxonalar bilan kooperasiyalashuv;

- iste'molchilar talabiga moslashuv;


- ishbilarmonlik muhitini mustahkamlash kabilarni ko'rishimiz mumkin.

Dissertasiyaning "**Ishbilarmonlik muhitini faollashtirish asosida mintaqani kompleks rivojlantirish omillari**" deb nomlangan ikkinchi bobida mintaqani kompleks rivojlantirishda ishbilarmonlik muhitini o'rni, mintaqada ishbilarmonlik muhitini faollashtirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, mintaqada innovasion-investision jarayonlarni faollashtirish yo'nalishlari tadqiq qilingan.

<sup>8</sup> Manba: Muallif ishlanmasi.

Mamlakatimizda mintaqalarni kompleks rivojlantirishda ishbilarmonlik muhiti muhim o‘rinni egallab, bunda asosiy e‘tibor tadbirkorlik faoliyatini uning zamonaviy shakllari asosida tashkil etish bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun ham, bugungi kunda O‘zbekistonda mintaqalarni kompleks rivojlantirishga e‘tibor keskin kuchaytirilib, me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, maxsus maqsadli davlat dasturlari va chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlarning ahamiyatini yuqoriligi borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida iqtisodiy islohotlarni yangi, yanada yuqori darajaga ko‘tarishga erishish uchun amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar qatorida “...iqtisodiy islohotlarni qat’iy davom ettiramiz, ichki imkoniyatlarni to‘liq safarbar qilib, xususiy sektorni yanada qo‘llab-quvvatlaymiz. Buning uchun, eng avvalo, tadbirkorlik muhitini tobora yaxshilash bo‘yicha islohotlarni jadallashtiramiz” deb ta’kidladilar<sup>9</sup>.

Jumladan, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi har oyda iqtisodiyotning turli sohalaridagi 1000 nafar tadbirkor o‘rtasida so‘rov o‘tkazadi (3-rasm).



**3-rasm. O‘zbekistonda ishbilarmonlik muhitining o‘zgarish ko‘rsatkichi dinamikasi (08.2020-01.2023 yillarda)<sup>10</sup>**


Ishbilarmonlik muhitining yig‘ma indeksi hozirgi holat va kutilayotgan ko‘rsatkichlar asosida shakllantirilmogda. Ular, o‘z navbatida, biznes yuritishdagi to‘siqlar haqida tashvishlanish darajasini namoyish etadilar. Jahon banking “Korxonalar so‘rovi” metodologiyasiga ko‘ra, tadqiqotning tanlab olish metodologiyasi sanoat tabaqalashuvida asoslangan. O‘z navbatida, O‘zbekistonning ishbilarmonlik muhiti indeksi “Ifo Institut” iqtisodiy tadqiqotlar instituti va “Berlin Economics” konsalting kompaniyasi ko‘magida Germaniyaning ishbilarmonlik muhiti indeksi (Geschäftsklimaindex) metodologiyasi asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotlar natijasida kichik biznesni ishbilarmonlik salohiyati holati asosida hududlarda kichik biznes faoliyatining tahlil etish uslubi ishlab chiqildi. Bunda makroiqtisodiy tendensiyalarning ijtimoiy, texnologik, iqtisodiy va siyosiy jihatlarini o‘z ichiga olgan STEP-tahlil hamda mintaqalar rivojlanishining kuchli va zaif

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 21.12.2022 yil. Manba: <https://president.uz/uz/lists/view/5774>

<sup>10</sup> <https://review.uz/oz/post/biznes-klimat-uzbekistana-predstavlen-na-platforme-trading-economics>

tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlar baholanadigan SWOT-tahlil usullaridan foydalaniladi(4-rasm).



**4-rasm. Hududlarda ishbilarmonlik salohiyati holati asosida kichik biznes faoliyatini tahlil qilish uslubiyati**

Yuqoridagi jihatlarni hisobga olgan holda, *Surxondaryo viloyatini kompleks*

## ***ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish SWOT taxlili amalga oshirildi:***

### **Kuchli tomonlari (Strength):**

- issiqsevar subtropik ekinlarni yetishtirish imkoni mavjud;
- yer boniteti yuqori;
- tog‘ va tog‘oldi zonalarida chorvachilik va bog‘dorchilikni rivojlantirish salohiyati katta;
- foydali kazilma konlari mavjudligi (ohaktosh, rangli tosh, keramzit, g‘isht, sement xomashyosi; Boysun, Jarqo‘rg‘on, Sherobod, tumanlarida);
- atlas, ipak gilam va suzana (Termiz sh.), do‘ppi, chopon (Denov va Termiz tumanlari) kabi tikish hunarmandchiligi rivojlanganligi;
- tarixiy obidalarning ko‘pligi va rekreasiya resurslariga boyligi turistik xizmatlarni yanada rivojlantirishga imkon yaratadi;
- viloyat xududida mavjud bo‘lgan boy xomashyo va kulay iklim sharoiti mintaqaning investisiya jozibadorligini ta‘minlaydi;

### **Zaif tomonlari (Weakness):**

- investisiya multiplikatori sezilarli darajada past bo‘lmoqda;
- investisiya qaytimi 5 %dan kam bo‘lib, past darajada bo‘lgan;
- hududda ishlab chiqarish kuchlari konsentrasiyasi past darajada;
- aholining to‘lov qobiliyati kamligicha qolmoqda;
- hudud maydoniga nisbatan avtomobil yo‘llari zichligi past;
- aloqa tarmoqlarining unchalik rivojlanmaganligi;
- aholi soniga nisbatan korxonalar va tashkilotlar soni kam.

### **Imkoniyatlari (Opportunity):**

- qishloq xo‘jalik mahsulotlari eksportini kengaytirish maksadida agrologistika markazini tashkil etish;
- tarixiy obidalarning ko‘pligi, joylarning viloyatdagi ba‘zi noyob tabiati asosida turizm va mexmonxona xo‘jaligi xizmatlarini rivojlantirish;
- shifobaxsh suv konlari asosida Sherobod, Boysun tumanlarida pansionat, sanatoriy va boshqa turdagi shifogohlarni tashkil etish;
- tabiiy resurslarga boy xududlarni o‘zlashtirishga xorijiy investisiyalarni jalb qilish (Sherobod, Boysun va Sariosiyo tumanlariga);
- turistik biznesni rivojlantirishga investisiyalarni jalb qilish imkoniyati;

### **Tahdidlar (Threats):**

- iqtisodiyotning norasmiy tarmoqlarida bandlik darajasining ortib borishi o‘rta va uzoq muddatli istiqbolida jiddiy iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi;
- tursunzoda alyuminiy zavodining atrof-muhitga zaharli gazlar chiqarishi Uzun, Sariosiyo va boshqa qo‘shni tumanlar ekologik muhitining yanada yomonlashuviga, meva va sabzovotlarning raqobatbardoshligi pasayishiga olib keladi.
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga talab ortib borishi barobarida ularni qayta ishlash darajasini pastligi, saqlash va qadoqlash uchun yetarlicha shart-sharoitlarning yo‘qligi;

Quydagilarga asosan, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish salohiyati ko‘pincha ishbilarmonlik faoliyatining mavjudligi va mintaqaning mavjud shart-sharoitlaridan kelib chiqib belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Surxondaryo viloyati boy resurs salohiyatiga, jumladan, mineral-xomashyo va mehnat resurslariga, tadbirkorlik qobiliyatiga, aholining yuqori darajadagi bilimi va mehnat malakasiga, tabiiy iqlim sharoitiga va mintaqqa ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishi va aholi turmush darajasini oshirishda ahamiyat kasb etadigan noyob tarixiy merosga ega.

2021 yil yakuni bo‘yicha Surxondaryo viloyati yalpi hududiy mahsuloti 38,7 trln. so‘m bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsulotining 5,3 foizini (8-o‘rin), 4,6 foiz sanoat (7-o‘rin), 4,5 foiz xizmat ko‘rsatish (6-o‘rin), 9,1 foiz qishloq xo‘jalik mahsulotini (5-o‘rin) ta‘minlaydi (1-jadval).

### 1-jadval.

#### Surxondaryo viloyatining O‘zbekiston iqtisodiyotida tutgan o‘rni<sup>11</sup>

Ko‘rsatkichlar	2010 y.	2015 y.	2021 y.	Mamlakatimizda tutgan o‘rni (2021 yilda)
Hududi				3
Hudud aholisi	5,8	5,7	5,6	9
YAlpi hududiy mahsulot	5,9	5,6	5,3	8
Sanoat mahsulotlari	4,4	5,3	4,6	7
Iste‘mol tovarlari	5,6	5,4	5,7	6
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	7,7	8,1	9,1	5
Asosiy kapitalga investisiyalar	13	9	7,7	3
Qurilish ishlari	7	8,1	6,9	3
Chakana savdo aylanmasi	5,9	6,3	5,8	9
Bozor xizmatlari	4	4,8	4,5	6
Tashqi savdo aylanmasi	3,4	3,7	2,6	7
shu jumladan:				
Ekspoy	2,7	2,6	1,9	8
Import	4,5	4,8	3	6

Surxondaryo viloyati iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznes ulushiga nazar tashlasak, uni YAHM dagi ulushi yildan-yilga oshib, 2010 yildagi 71,7 foizdan 2022 yilda 76,8 foizga etgan. Shu borada kichik biznesni sanoatdagi ulushi 25,4 foizdan 42,9 foizga, qurilishda 77,9 foizdan 92,2 foizga, aholi bandligida 75,0 foizga 80,1 foizga etgan(2-jadval).

<sup>11</sup> Muallif ishlanmasi

**2 -jadval****Surxondaryo viloyat iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesni ulushi***(umumiy hajmga nisbatan % da)*

Yillar	YAHM	Sanoat	Qurilish	Bandlik
2010	71,7	25,4	77,9	75,0
2011	73,8	32,0	75,8	76,3
2012	73,7	32,9	77,8	77,5
2013	74,1	34,0	77,7	79,0
2014	74,5	37,6	79,1	79,9
2015	76,2	39,1	77,9	80,3
2016	78,0	45,2	83,9	80,9
2017	78,5	51,1	77,0	80,9
2018	80,2	48,2	81,1	79,4
2019	77,9	41,0	80,5	79,6
2020	77,1	45,3	84,2	-
2021	77,3	50,6	86,7	-
2022	76,8	42,9	92,2	-

Surxondaryo viloyati iqtisodiyotida kichik biznes hajmi ham yildan-yilga oshib bormoqda. Kichik biznes sub'yektlarini eksport salohiyati yuksalib, 2010 yilda 52, 1 mln. AQSh dollaridan 2022 yilda 145,6 mln. AQSh dollariga etgan va 2,8 marta ortgan (3- jadval).

**3-jadval****Surxondaryo viloyati iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznes xajmining asosiy ko'rsatkichlari, joriy narxlarda<sup>12</sup>**

Yillar	Sanoat (mlrd.sum)	Qurilish (mlrd.sum)	Bandlik (ming kishi)	Eksport (mln.AQ Sh.dol)	Import (mln.AQS h.dol)	Savdo (mlrd.sum)	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (mlrd.sum)	Xizmatlar (mlrd.sum)
2010	192,3	252,3	588,6	52,1	14,5	1234,6	2319,9	653,6
2011	296,5	345,8	623,5	73,0	51,2	1630,5	4120,4	847,9
2012	362,9	444,9	653,5	55,4	56,1	2100,1	4872,3	1088,4
2013	449,2	632,6	688,2	129,5	91,4	2786,0	5453,9	1388,2
2014	608,2	832,1	720,6	25,9	31,4	3571,9	6812,6	1845,6
2015	747,6	1052,8	747,3	72,8	18,8	4337,8	8262,3	2360,0
2016	995,7	1303,7	778,2	54,7	79,3	5604,2	8826,5	3015,2
2017	1204,6	1407,4	802,6	109,0	181,9	6605,9	11763,3	3431,7
2018	1558,6	2336,3	781,0	168,5	361,4	8161,5	15243,9	4563,9
2019	1736,4	3205,1	815,7	176,9	241,3	9740,5	17962,6	4879,9
2020	2413,2	4020,9	-816,1	134,8	189,0	11500,2	19264,1	5331,3
2021	3378,6	5089,2	-820,2	141,0	185,7	14264,9	23281,8	10387,4
2022	3128,8	6033,6	-831,5	145,6	105,4	17868,0	27239,3	8417,2

Tadqiqot natijasida, 2022 yilning yanvar-fevral oylarida maxsus tuzilgan

<sup>12</sup> Muallif ishlanmasi

savolnoma vositasida Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan 100 ta kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tadbirkorlik qobiliyati rivojlanganlik darajasini ekspert usulida baholandi (4-jadval).

#### 4-jadval


### Surxondaryo viloyatidagi 100 ta tadbirkorlik sub'ektlarini tadbirkorlik qobiliyati (TQ) rivojlanganlik darajasini baholash natijalari<sup>13</sup>

TQ real rivojlanganlik darajasining multiplikatori (Rtq)	Tadbirkorlik sub'ektlarining TQ rivojlanganlik darajasi	TQ Rivojlanganlik darajasiga xos tadbirkorlik sub'ektlari soni, birlikda	Ularning umumiy baholangan tadbirkorlik sub'ektlaridagi ulushi,%
0,0 dan 0,50 ga qadar	Past	12	12,0
0,51 dan 0,79 ga qadar	O'rta	68	68,0
0,80 dan 1,0 ga qadar	Yuqori	20	20,0
<b>Jami:</b>		100	100

Viloyatdagi 100 ta baholangan tadbirkorlik sub'ektlaridan 12 tasida tadbirkorlik qobiliyati real rivojlanganlik darajasining multiplikatori (Rtq) 0,0 dan 0,50 gacha oralig'ida qaror topib, "past" darajadagi tadbirkorlik qobiliyatiga ega ekanligi aniqlandi.

Baholangan tadbirkorlik sub'yektlari orasida real rivojlanganlik darajasining multiplikatori (Rtq) holati 0,51 dan 0,79 gacha oralig'ida "o'rta" darajadagi tadbirkorlik qobiliyatiga egalar soni eng ko'p - 68 tani tashkil qiladi. O'rganilgan tadbirkorlik sub'ektlarning real rivojlanganlik darajasining multiplikatori (Rtq) holati 0,80 dan 1,0 gacha oralig'ida "yuqori" darajada tadbirkorlik qobiliyati rivojlanganlarning soni, uncha ko'p emas, atigi - 20 taga etgani ma'lum bo'ldi.

Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'ektlarining diagnostik tahliliga ko'ra, tadbirkorlik qobiliyatining "past", "o'rta" va "yuqori" darajalarda rivojlanganlik darajasiga mos ravishda uchta - "mahoratsiz", "salohiyatli" va "mahoratli" tadbirkorlar toifasi ajratildi. Ularning salmog'ini o'rganish esa 100 ta kichik biznes va xususiy tadbirkorlar o'rtasida "Mahoratli tadbirkor" sifat maqomidagilar 20 foizni, "Salohiyatli tadbirkor"lar - 68 foizni va "Mahoratsiz tadbirkor"larning ulushi 12 foizni tashkil qiladi (5-rasm).




5-rasm. Surxondaryo viloyatidagi 100 ta tadbirkorlik sub'ektlarining sifat

<sup>13</sup> Manba: muallifning tadqiqotlari asosida tayyorlangan.

## maqomlari salmog‘i<sup>14</sup>

Dissertasiyaning “**Surxondaryo viloyatini kompleks rivojlantirishning ustuvor yunalishlari**” deb nomlangan uchinchi bobida Surxondaryo viloyatini mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o‘rni, mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari, mintaqani kompleks rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

